

камайтириш имконини беради²²². Тўлов кафолатлари ва имтиёзли кредитлар каби механизмлар хусусий сармояларни жалб қилишда, хатарларни камайтиришда ва лойиҳаларни иқтисодий жиҳатдан самарали бўлишига имкон беради.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда анъанавий ўсиш драйверлари бўлиб келган – инфратузилмага сармоялар ва хомашё экспорти бугунги кунда ўзининг долзарблигини йўқотмоқда, шу боис WDR 2024 ҳисоботида келтирилган тавсия ва хулосалар долзарб бўлиб қолмоқда. Таклиф этилган чора-тадбирларни амалга ошириш – технологик модернизация, институтларни мустаҳкамлаш, инсон капиталини ривожлантириш ва «яшил» трансформация – Ўзбекистонга иқтисодий ўсишни жадаллаштириш ва «Ўзбекистон – 2030» стратегиясида кўзда тутилган юқори даромадли давлат мақомини олишга имкон беради.

MILLIY EKSPORT RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS TENDENSIYALARI

Sodiq Muhammad Fazlulloh Zokir o‘g‘li ²²³

Global iqtisodiy integratsiya sharoitida har bir mamlakat o‘zining milliy iqtisodiyotini rivojlantirish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish orqali xalqaro raqobatda o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va xomashyo eksportidan tayyor mahsulotlar eksportiga o‘tish, bugungi kunda jahon bozorida muvaffaqiyat qozonishning muhim omiliga aylangan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning mahsulotlarini xalqaro talab va standartlarga moslashtirish, eksport geografiyasini kengaytirish va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentning tegishli farmon va qarorlarida eksport faoliyatini rivojlantirish, eksportchilar uchun imtiyozlar yaratish, logistika infratuzilmasini yaxshilash, tashqi savdo diplomatiyasini faollashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotda qo‘lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar va yutuqlar borasida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo‘yicha

²²² <https://www.ifc.org/ru/pressroom/2024/ifc-partners-with-acwa-power-to-support-uzbekistan-s-renewable-energy-transition>

²²³ “Oriental” universiteti magistratura bo‘limi, Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2-kurs talabasi

videoselektor yig‘ilishida “Mamlakatimizdagi ochiqlik, kuchli investitsiya siyosati natijasida iqtisodiyot barqaror o‘shib kelayapti. Xususan, 2024-yilda yalpi ichki mahsulot 6,5 foizga oshib, 115 milliard dollarga yetdi. Xorijiy investitsiya 1,6 barobar o‘shib, qariyb 35 milliard dollarni tashkil qildi. Qiymati 10 milliard dollarlik 242 ta yirik va o‘rta loyihalar ishga tushdi. Eksport ilk bor 27 milliard dollarga yetdi. O‘tgan yili tog‘-kon, neftgaz, kimyo, qishloq xo‘jaligi sohalarida investitsiya 2 karra oshgan” deb²²⁴ qayd qilingan. Xalqaro bozorlardagi o‘zgaruvchan talab, texnik to‘siqlar, narxlar volatilligi va marketing strategiyalarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani kabi omillar hali-hamon mahalliy eksportchilar oldida muhim to‘siq bo‘lib qolmoqda. Shu boisi, mahalliy mahsulotlarning tashqi bozorlarda muvaffaqiyatli raqobatlasha olishi uchun eksportni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish, eksport oldi xizmatlarini rivojlantirish va zamonaviy marketing yondashuvlarini joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Iqtisodiyotimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va siyosiy o‘zgarishlar, ulkan yangiliklar va jarayonlar globallashuv avj olib borayotgan davrda taraqqiyot tendensiyasining mohiyatini ko‘rsatib beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son) farmonining “Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta’minlash” yo‘nalishi 55-maqсадida “Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish” vazifasi²²⁵ ushbu vaziyatni aniq namoyon qiladi.

Milliy eksport tendensiyasining asosiy xususiyatlar bo‘yicha 2010–2014-yillarda nisbiy barqarorlik va pasayish kuzatilgan. Xususan eksport 2011-yilda 13,2 mlrd \$ bilan eng yuqori ko‘rsatkichga erishgan bo‘lsa, 2012–2014 yillarda esa pasayish kuzatilgan. Bu global iqtisodiy muammolar va xomashyo narxlarining o‘zgarishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Lekin, eksport hajmida 2015–2016-yillarda keskin pasayish sodir bo‘lgan va 2016-yilda eksport hajmi 8,9 mlrd \$ gacha tushgan. Bu davrda neft-gaz, paxta narxlarining global miqyosda pasayishi, hamda eksport strategiyasidagi islohotlar bosqichma-bosqich boshlanishi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Ayni paytda, 2017–2019-yillarda milliy eksportda tiklanish va o‘shish davri bo‘lib, 2017-yildan boshlab eksport hajmida asta-sekin o‘shish tendensiyasi boshlagan va 2019-yilda eksport hajmi 14 mlrd \$ga yetib, yangi yuqori cho‘qqini zabt etgan. Biroq, 2020–2021-yillarda Pandemiya ta’siri sezilgan va 2020-yilda 13,1 mlrd \$ bilan nisbatan pasayish yuz bergan. Ammo, 2021-yilda eksport yana tiklanib

²²⁴ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi, 16.01.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/7825>.

²²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son) farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-6600413>

14,08 mlrd. \$ga yuksalgan bo‘lsa, 2022–2023-yillarda eksport jadal o‘shish bosqichiga kirgan. Masalan, eksport hajmi 2022-yilda 15,2 mlrd. \$, 2023-yilda esa rekord bo‘lgan 19,2 mlrd \$ darajasiga chiqqan. Bu bosqichda eksport sohasida yangi mahsulotlar, yangi bozorlar hamda qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar hajmining ortgani sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Milliy tovarlar eksportining rivojlanish tendensiyasi²²⁶, mln. AQSh \$da

Klassifikator	2010	2016	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Jami	11687,9	8974,0	10920,7	14023,8	13097,3	14081,1	15275,9	19229,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	637,9	817,6	881,3	836,5	820,9	1136,6	1307,7	1307,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1610,4	1712,6	2411,8	2752,9	2906,4	4332,9	4383,5	4051,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	699,8	208,9	204,1	421,8	434,4	693,6	973,7	1305,2
Turli xil tayyor buyumlar	153,6	245,8	337,6	435,7	617,3	780,4	1106,1	1195,6
Boshqa tovarlar	2624,4	2807,6	2939	4978,2	5813,1	4303,9	4132,3	8192,6
Xizmatlar	1335,5	3120,6	3070	3434,8	2005	2581,7	4456,7	5640,4
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1056,2	644,9	1029,9	1436,4	1336,2	1371,8	1631,5	1777,6
Ichimliklar va tamaki	44,5	17,8	22,3	29,8	27,1	36	111	123
Nooziq-ovqat xomashyo, yokilg‘idan tashqari	1733,5	788,5	427,5	591,2	456,1	509,5	393,6	321,4
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	2907,8	1713,9	2666,8	2528,9	659	914,8	1215,2	940,6

²²⁶ Stat.uz

Hayvonlar va usimliklar moylari (yoglari), yoglar va mumlar	1,4	0	0,1	12,4	26,8	1,5	21,2	14,2
---	-----	---	-----	------	------	-----	------	------

Asosiy xulosa sifatida 2016-yilda 8,9 mlrd \$ bilan eng past eksport amalga oshirilgandan keyin mamlakat eksportida barqaror va jadal o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2023-yilda eksport hajmi 2010-yilga nisbatan 64% ga oshgan. Bu eksportdagi o‘shish iqtisodiy islohotlar, yangi logistika yo‘llari ochilishi va sanoatni modernizatsiya qilinishi hisobiga ta‘minlanmoqda. Eksportning barqaror o‘shishi milliy iqtisodiy mustahkamlikning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, xorijiy valyuta tushumlari va to‘lov balansi barqarorligiga xizmat qiladi.

Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarni eksport qilish – iqtisodiyotning o‘shishi va milliy daromadning oshishi uchun zarur bo‘lgan asosiy omillardan hisoblanadi. Milliy eksportning asosiy tarkibiy qismlari o‘zgarib borayotgan bo‘lsa-da, hali ham xomashyo eksporti ustunligini saqlniab qolmoqda.

Eksportni rag‘batlantirish va uni yanada oshirish jarayonlari mamlakatning eksport salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan kompleks choralardan iborat. Davlat tomonidan qabul qilingan siyosat, infratuzilma yengilliklari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va xalqaro aloqalarni rivojlantirish kabi choralar eksportning raqobatbardoshligini oshirishga katta hissa qo‘shmoqda. Milliy eksportni rag‘batlantirishda muhim yutuqlar mavjud bo‘lib, u eksportga ko‘maklashuvchi imtiyozlar, xalqaro sertifikatlash tizimining takomillashuvi, yangi bozorlar ochilishi va marketingning mustahkamlanishi bo‘yicha amaliy choralar samarali amalga oshirilganligi ma‘lum bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. – 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son
2. Alimov A., Maxmudov E., Xaydarov N. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T.: “Zilol buloq nashriyoti”, 2020. – 432 b.
3. Pugel Thomas A. International Economics. 18th edition. – Printed in the USA, © 2024.
4. Salvatore Dominick. International Economics. 13th edition. – Printed in the USA, 2019. – 720 p.
5. Sodikov Z.R. Globallasuv sharoitida tashqi savdoning rivojlanish tendensiyasi. Monografiya. – T.: “Complex print”, 2021. – 84 b.
6. Tuxliev N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yangi trendlar. Monografiya. – T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2021. – 72 b.
7. Tuxliev N. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya: rivojlanish, qonuniyatlari, xususiyatlari. Monografiya. – T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2020. – 116 b.

8. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xadjibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T.: Bakteria, 2015. – 584 b.
9. <https://www.stat.uz>
10. <https://wdi.worldbank.org/tables> (Jahon banki guruhi)

YAYLOV YERLARIDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA SOLISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Yuldasheva Tursinoy Gofurjonovna²²⁷

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi O‘zbekiston Respublikasida yaylov yerlaridan foydalanish tizimini iqtisodiy mexanizmlar orqali takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Asosiy e’tibor “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga muvofiq tarzda fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirishga qaratilgan. Tezisdagi resurslardan oqilona foydalanish, ekologik motivatsiyalar, rag‘batlantiruvchi soliq va subsidiyalar, eko-ball tizimi hamda sug‘urta mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Tahlil va tavsiyalar grafik, jadval va rasmiy tasvirlar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: Yaylovlar, yashil iqtisodiyot, iqtisodiy mexanizmlar, ekologik rag‘bat, subsidiyalar, soliq imtiyozlari, barqaror foydalanish.

Аннотация. В данном тезисе рассматриваются вопросы совершенствования системы использования пастбищных земель в Республике Узбекистан путем внедрения экономических механизмов. Основное внимание уделено стимулированию фермерских хозяйств в соответствии с концепцией «зеленой экономики». Раскрыта значимость рационального использования ресурсов, экологических мотиваций, налоговых и субсидированных льгот, системы эko-баллов и страхования. Анализ и предложения представлены с графиками, таблицами и иллюстрациями.

Ключевые слова: Пастбища, зеленая экономика, экономические механизмы, экологические стимулы, субсидии, налоговые льготы, устойчивое использование.

Abstract. This thesis examines the improvement of economic mechanisms in the use of pasture lands in the Republic of Uzbekistan. The focus is placed on motivating farming enterprises in line with the “green economy” concept. The thesis highlights the importance of rational resource use, ecological motivation, incentive-

²²⁷ Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti“ milliy tadqiqot universiteti 3-kurs doktoranti